

Menejment (kimyo va oziq-ovqat sanoati)



Ta'lim shakli, ta'lim davri:

240 kredit to'planadi, sirtqi ta'lim shakli, 5 yil o'qiladi

Ta'lim klasifikatori:

menej er

Ilmiy izlanish qamrovi:

kimyo va oziq-ovqat sanoati

Fakultet:

Menejment va professional ta'lim

Mutaxassislik kodi:

60412500

Kafedra mudiri:

Xo'jamurodov Asqarjon Jalolovich simk@tkti.uz

O'quv dasturining maqsad(lar)i:

Mehnat bozori talablariga javob beradigan, oliy ma'lumotli, yuqori professional malaka va ko'nikmalarga ega bo'lgan Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bo'yicha mutaxassislarni (bakalvr va magistr) tayyorlash hisoblanadi.

Professional faoliyatga kirish:

bakalavriat sirtqi ta'lim yo'nalishi- O'zbekiston kimyo va oziq ovqat sanoati korxonalarini bilan o'zaro mustahkam aloqalar o'rnatilgan bo'lib, korxonalarda mavjud boshqaruv tizimi, personalni boshqarish, zamonaviy menejment usullari va mexanizmlarini qo'llash, yuzasidan muammolarga yechim topish maqsadida ilmiy ishlar olib borilmoqda. Magistratura talabalariga korxonlardagi mavjud muammolarga asoslangan dissertatsiya mavzulari berilgan, ular asosan, korxonadagi mavjud menejment tizimi kamchiliklarini tahlil qilib, ularni takomillashtirish, zamonaviy menejment maktablari tomonidan tavsiya etilgan menejment usullarini joriy etish, mahsulotlar raqobatdardoshligini hamda eksport salohiyatini yanada oshirishga ko'maklashishga yo'naltirilgan.

Menejment (kimyo va oziq-ovqat sanoati)



1-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	SO'EYT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	4
	SIQTN1106	Iqtisodiyot nazariyasi	6
	SMARK1104	Marketingga kirish	4
	SXT1106	Xorijiy til	6
	SMAT1106	Amaliy matematika	6

3-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	SDIN2304	Dinshunoslik	4
	SRQI2306	Raqamli iqtisodiyot	6
	SMARK2306	Marketing asoslari	6
	SSTAT2304	Statistika	4
	SMIKI2304	Mikro iqtisodiyot	4

2-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	SO'RT1204	O'zbek (rus) tili	4
	SXT1204	Xorijiy til	4
	SMAT1206	Amaliy matematika	6
	SITT1206	Iqtisodiy ta'limotlar tarixi	6
	SIAKT1206	Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar	6

4-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	SMEN2406	Menejment	6
	SBUX2406	Buxgalteriya	6
	SJIXI2406	Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar	6
	SITA2406	Iqtisodiy tahlil va audit	6

Menejment (kimyo va oziq-ovqat sanoati)



5-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	SJIXI3506	Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar	6
SSTRM3506	Strategik menejment	6	
SMAKI3504	Makro iqtisodiyot	4	
SINVM3504	Innovatsion menejment	4	
Tanlov fanlar			
SISHM3504/	Ishlab chiqarish menejmenti/	4	
SLM3504	Loyiha menejmenti	4	

7-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	SKKICH4704	KOOS korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish	4
SOOMI4704	Oziq - ovqat maxsulotlarini ishlab chiqarish asoslari	4	
SXAME4706	Xalqaro menejment	6	
SIRB4706	Inson resurslarini boshqarish (HR)	6	
Tanlov fanlar			
SYAI4704/	Yashil iqtisodiyot/	4	
SINVB4704	Investitsiyalarni boshqarish		

6-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	SFAL3604	Falsafa	4
SKKICH3606	KOOS korxonalarida ishlab chiqarishni boshqarish	6	
SIQX3604	Iqtisodiy xavfsizlik	4	
Tanlov fanlar			
SKORB3604/	Korporativ boshqaruv/	4	
SBB3604	Brendni boshqarish		
SYTO'R3602	Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi	2	

8-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	SSM4804	Sifat menejmenti	4
Tanlov fanlar			
SPVB4806/	Pul va banklar/	6	
STYM4806	Taym menejmenti		
SOPM4804/	Operatsion menejment/	4	
SXRI4804	Xorijiy investitsiyalar		
STDM4804/	Tadbirkorlik menejmenti/	4	
SPRM4804	PR menejment		

Menejment (kimyo va oziq-ovqat sanoati)



9-semestr

Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
SMLA5906	Moliya asoslari	6
SBRI5906	Birja ishi	6
Tanlov fanlar		
SQQB5906/ SEKM5906	Qimmatli qog'ozlar bozori/ Ekologik menejment	6
SITM5904/ SBZS5904	Ijtimoiy menejment/ Biznes strategiyasi	4

10-semestr

Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
SEHFH5104	Ekologiya va hayot faoliyati havfsizligi	4
Tanlov fanlar		
SKBT5104/ SO'OBN5104	Kichik biznes va tadbirkorlik/ O'rta osiyoda bozor nazariyasi va tajribasi	4
SRSM5104/ SMKT5104	Risk menejmenti/ Marketing tadqiqotlari	4



O'rganish natijalari:

Bilim va tushunchalar

- A1** Tashkilot va korxonalar tashkiliy tuzilishining optimal variantlarini tanlay oladi;
- A2** Boshqaruv tizimining turli pog'onalarida vakolatlar va vazifalarni taqsimlashni amalga oshira oladi;
- A3** Tashkilot va korxonalar boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan qarorlarni ishlab chiqadi va qabul qiladi;
- A4** Tashkilot va korxonada mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish va hodimlar motivatsiya tizimida ishlay oladi;

Texnologik tahlil

- B1** Biotexnologik jarayonlarni tahlil qilish va baholash, eksperimental, analitik va raqamli usullarni qo'llash, bio-ishlab chiqarish texnologiyalarini (biokimyoviy moddalar, biomateriallar, bioyoqilg'i) tushuntirish qobiliyatiga ega;
- B2** Muhandislik va biotexnologik muammolarni aniqlash, shakllantirish va hal qila oladi, o'z bilim va tushunchalarini muhandislik va bioprosess tahliliga qo'llay oladi, usullar va biotexnologik jihozlarni tanlash, biomahsulotlar biosintezi, fermentatsiya, tozalash va ishlab chiqarish bosqichlarini tushuna oladi;
- B3** Xavfsizlik talablari va texnologiyalarning inson salomatligiga ta'sirini hisobga olish, biotexnologiyada tegishli tahliliy va modellash tirish usullarini tanlash va qo'llash, texnologik parametrlar va jihozlarni tanlash, biotexnologik jarayonlarda modellash tirishni qo'llash qobiliyatlariga ega;
- B4** Menejment funksiyalarini amalga oshirish va kasbga oid hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish;

Texnologik dizayn

- C1** Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish;
- C2** Birlamchi ishlab chiqaruvchi bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish, bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

Tadqiqot

- D1** Ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishlaridagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;
- D2** Tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish usullari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishga qatnashish;
- D3** Xo'jalik yurituvchi subyektlarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlashga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish;
- D4** Tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlash borasidagi muammoli mavzular bo'yicha iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- D5** Internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- D6** Ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

Amaliy tadbirlar

- E1** Strategik va operatsion boshqaruv vazifalarini hal qilish uchun motivatsiya, yetakchilik va kuchning asosiy nazariyalaridan foydalanish, shuningdek guruhning dinamik jarayonlari va jamoani qurish tamoyillari to'g'risidagi bilimlarga asoslangan guruh ishlarini tashkil qilish, inson resurslarini tekshirish va tashkiliy madaniyatni tashxislash qobiliyatlariga ega bo'lish;
- E2** Xodimlarni boshqarishning zamonaviy texnologiyalariga, shu jumladan, madaniyatlararo muhitga asoslangan shaxslararo, guruhiy va tashkiliy aloqalarni ishlab chiqishda nizoli vaziyatlarni hal qilishning turli usullariga ega bo'lishi;
- E3** Strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- E4** Aktivlarni baholash, aylanma mablag'larni boshqarish, investitsiya qarorlari, moliyalashtirish bo'yicha qarorlar, dividend siyosati va kapital tuzilmasini shakllantirishda moliyaviy boshqaruvning asosiy usullarini qo'llash, shu jumladan globallashtirish sharoitida jahon bozorida operatsiyalar bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishda;

Shaxsiy ko'nikmalar

- F1** Me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va o'zlarining professional faoliyatlarida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- F2** Qabul qilingan qarorlarning ijtimoiy ahamiyati nuqtayi nazaridan javobgar bo'lish va tashkiliy va boshqaruv qarorlarini topish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- F3** Tashkiliy tuzilmalarni ishlab chiqish, tashkilotlarning kadrlarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishda ishtirok etish, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish, amalga oshirilayotgan harakatlar uchun shaxsiy javobgarlikni hisobga olgan holda vakolatlarini taqsimlash va berish qobiliyati;
- F4** Korxonalar ma'lumotlari va korporativ axborot tizimlarini qayta ishlashning zamonaviy usullaridan foydalanishga asoslangan holda moliyaviy hisobotlarni tuzishning turli usullari va usullarining tashkilotning moliyaviy natijalariga ta'sirini hisobga olgan holda moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda mohirlik;
- F5** Tashkilotlarning operatsion (ishlab chiqarish) faoliyatini boshqarishda qarorlar qabul qilish usullariga ega bo'lish;
- F6** Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.